HISOB-KITOB ISHLARINI BAJARISHDA EXCEL DASTURINING IMKONIYATLARI

Norquziyeva Gulshona Sherbek qizi
Jizzax davlat pedagogika unversiteti Amaliy matematika yo'nalishi talabasi,
(+998937289928, ngulshona@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Microsoft Excel dasturining hisob-kitob ishlarini bajarishdadagi imkoniyatlari, elektron jadvallar bilan ishlash funksiyalari, matematik formulalar bilan ishlash uchun qulay imkoniyati. Shuningdek,Excel dasturining ta'lim,iqtisodiyot,moliya va boshqa sohalardagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: elektron jadval,hisob-kitob,formula,grafik, jadval.

Bugungi kunda hisob-kitob ishlarini bajarishda zamonaviy dasturiy vositalarning ahamiyati katta. Turli xil matematik,iqtisodiy va statistik hisoblarni qo'lda bajarish ko'p vaqt talab qiladi ba'zi hollarda hisob-kitob vaqtida xatoliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli hisob-kitob ishlarini avtomatlashtirilga imkon beruvchi dasturlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Microsoft Excel dasturi hisob-kitob va ma'lumotlarni qayta ishlashda keng qo'llaniladigan elektron jadvaldasturlaridan biridir. Excel dasturi Microsoft Office dasturlar to'plamining tarkibiy qismi bo'lib, unda turli ko'rinishdagi jadvallar yaratish, malumotlarni ishonchli saqlash, matematik amallarni bajarish, formulalar va funksiyalardan foydalanish hamda natijalarni grafik ko'rinishida ifodalash mumkin.

Excel dasturining asosiy imkoniyatlaridan biri ma'lumotlarni electron jadval ko'rinishida tartibli joylashtirishdir. Elektron jadval satr va ustunlardan tashkil topgan bo'ladi. Har bir katakka son, matn, sana yoki formula yozish mumkin. Kiritilgan malumotlar asosida turli xil hisob-kitoblarni avtomatik ravishda amalga oshirish imkoniyati mavjud. Excel dasturida qo'shish,ayirish,ko'paytirish, bo'lish, foizini toppish, o'rta arfmetiki, maxsimum va minimum qiymatlarni ham chiqarib beradi.

Excelda tayyor funksiyadan foydalanish hisob-kitob jarayonini ancha yengillashtiradi. Masalan, biz bir kitob do'konini misol tariqasida oladigan bo'lsak u yerga kitoblar sonini, kitoblar nomini, kitobning olib kelingan narxini, sotiladigan narxini yozishimiz va ularni hisob kitob qilishimiz kerak bo'ladi. Masalan, 150 ta kitob olib kelindi va bu kitoblarni narxlari yozilinib umumiy qancha pul sarflandi, keyin 150 ta kitobni har biriga qanchadan ustiga pul qoshayapti, ya'ni, sotilish narxi qancha bo'lyapti, so'ng hisob kitob qilinadi har bitta kitobning boshlang'ich narxi qo'shiladi va sotilishi kerak bo'lgan narx qo'shiladi va umumiy hisobda qancha foyda qoladi hisoblanadi.Agar bularni biz bittalab qo'shib chiqsak biz hisob kitobda adashib ketishimiz ba'zi hollarda esa hisob-kitob noto'g'ri bo'lishi orqali zararga kirishga ham olib kelishi mumkin. Agarda biz kitobni narxini oshirishimiz yoki narxini arzonroqqa sotmoqchi bo'lsak biz hisob-kitobni boshidan 150 ta kitobni har birini narxini yangidan o'zgartirishga to'g'ri keladi. Agar biz Excelning tayyor imkoniyatlaridan foydalansak ishimiz oson, ishonchi va hisob-kitob aniq bo'ladi. Biror kitobni narxini o'zgartirmoqchi bo'lsak faqat o'sha kitobni narxini o'zgartiramiz xolos hisob-kitob o'zi avtomatik shakilda hisoblanib boraveradi. Biz yillik yoki har oyni hisob-kitob olishimiz agar hohlasak bir kunda qancha kitob sotildi, qancha qoldi va bir kunda qancha pul foyda bo'ldi, bularni hammasini oson tarzda kalkuliyatorsiz Excel hisoblab beradi.Masalan, „Xamsa'' kitobidan nechta qoldi uni Excel aniq ko'rsatib qo'yadi biz uni borib sanab o'tirmaymiz. Shu bilan birgalikda biz kitoblarga 20% chegirma qilmoqchi bo'lsak ham Excel o'zi aniq


© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

hisoblab beradi.Foydani o'rta armetigini, maxsimum foyda yoki minimum foyda ham excel imkoniyatlari orqali hisoblanadi.

Excelni imkoniyatlari juda ko'p ulardan biri katta hajmdagi ma'lumotlarni bilan ishlashdir. Foydalanuvchi ma'lumotlarni jadvalga kiritib, ularni saralashi, filtirlashi, va kerakli malumotlarni ajratib olishi mumkin. Masalan, kitob do'konini xarajat va mahsulot narxlari Exceld jadvalida saqlanishi va qayta ishlanishi mumkin. Agar biz uni saqlab qo'ysak uo'chib ketmaydigan eng ishonchli dastur.

Matematik formulalarni Excelda qo'lanishi shundan iboratki agar hisob-kitob vaqtida daromadlarni qo'shmoqchi bo'lsak **SHIFT+=** tugmasi bosiladi, ayirish amalini bajarmoqchi bo'lsak shundaygina – tugmasini bosganimizda daromadlar ayriladi, ko'paytirish amalini bajarmoqchi bo'lsak **SHIFT+8** tugmasi bosiladi, bo'lish amalini bajarishda **SHIFT+** tugmasi bosiladi, darjaga ko'tarishda esa **SHIFT+6** tugmasi bosiladi uning yig'indisini hisoblashda = tugmasi bosilib hisoblanadi, foiz hisoblashda esa **CTRL+SHIFT+5** orqali hisoblanadi.

Misol uchun kitob do'konidagi kitoblarni asl narxi, kitobni sotiladigan narxi va chegirmalar so'ng esa chegirmadan keyingi so'mma va qoladigan foydani Excel yordamida oson hisob-kitob qilish.



	A	B	C	D	E	H	I	J	K	L
1	Madina kitob do'koni	Kitoblar soni (dona)	Tannarx(so'm)	Sotiladigan narx(so'm)	Jami sotuv(so'm)	Chegirma	Chegirma so'mma	Chegirmadan keyingi so'm	Jami tannarx(so'm)	Foyda (so'm)
2	Ulug'bek xazinasi	15	12,00 so'm	30,00 so'm	450,00 so'm	2%	0,60 so'm	29,40 so'm	441,00 so'm	411,60 so'm
3	Yulduzli tunlar	20	11,00 so'm	28,00 so'm	560,00 so'm	2%	0,56 so'm	27,44 so'm	548,80 so'm	521,36 so'm
4	Avlodlar davoni	21	16,00 so'm	25,00 so'm	525,00 so'm	2%	0,50 so'm	24,50 so'm	514,50 so'm	490,00 so'm
5	Men	25	32,00 so'm	60,00 so'm	1 500,00 so'm	5%	3,00 so'm	57,00 so'm	1 425,00 so'm	1 368,00 so'm
6	Xamsa	12	13,00 so'm	28,00 so'm	336,00 so'm	1%	0,28 so'm	27,72 so'm	332,64 so'm	304,92 so'm
7	Binafsha shulasi	14	40,00 so'm	70,00 so'm	980,00 so'm	5%	3,50 so'm	66,50 so'm	931,00 so'm	864,50 so'm
8	Fotimaning Bolasi	35	38,00 so'm	65,00 so'm	2 275,00 so'm	5%	3,25 so'm	61,75 so'm	2 161,25 so'm	2 099,50 so'm
9	Yusufning qizi	28	40,00 so'm	69,00 so'm	1 932,00 so'm	5%	3,45 so'm	65,55 so'm	1 835,40 so'm	1 769,85 so'm
10	Dunyoning ishlari	10	13,00 so'm	25,00 so'm	250,00 so'm	1%	0,25 so'm	24,75 so'm	247,50 so'm	222,75 so'm
11	Ikki Eshik orasi	18	18,00 so'm	32,00 so'm	576,00 so'm	2%	0,64 so'm	31,36 so'm	564,48 so'm	533,12 so'm
12	Tushda kechgan umurlar	12	10,00 so'm	20,00 so'm	240,00 so'm	2%	0,40 so'm	19,60 so'm	235,20 so'm	215,60 so'm
13	Nur borki soya bor	5	8,00 so'm	20,00 so'm	100,00 so'm	2%	0,40 so'm	19,60 so'm	98,00 so'm	78,40 so'm
14	Shamol esaveradi	4	9,00 so'm	20,00 so'm	80,00 so'm	2%	0,40 so'm	19,60 so'm	78,40 so'm	58,80 so'm
15	Yashamoq	14	24,00 so'm	50,00 so'm	700,00 so'm	2%	1,00 so'm	49,00 so'm	686,00 so'm	637,00 so'm
16	Jami	233	284,00 so'm	542,00 so'm	10 504,00 so'm	38%	18,23 so'm	523,77 so'm	10 099,17 so'm	9 575,40 so'm

Xulosa qilib aytganda Microsoft Excel dasturi hisob-kitob ishlarini bajarishda qulay va samarali vositalardan biridir. Uning yordamida matematik, statistik, iqtisodiy va moliyaviy hisob-kitoblarni bajarish, malumotlarni jadval shaklida saqlash, saralash va tahlil qilish mumkin. Exceldan ta'lim, iqtisodiyot, biznes, moliya va boshqa hisob-kitob ishlarining muhim qismiga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леонтьев В.П. Microsoft Office Excel. — Москва: Эксмо.
2.Симонович С.В. Информатика. Базовый курс. — Санкт-Петербург: Питер.
3.Microsoft Excel dasturi bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar.
4.Microsoft Office dasturlari bo'yicha elektron o'quv materiallari.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.